

AMERIKA SUDLARINING AN'ANAVIY SUDLOVDAN ELEKTRON SUD TIZIMLARIGA TRANSFORMATSIYASI: O'ZBEKISTON ELEKTRON SUD TIZIMI BILAN TAHILI

Ravshanova Malika Asror qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti,

ORCID: 0009-0006-5780-4669

malikarav@icloud.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Amerika Qo'shma Shtatlari federal sud tizimining an'anaviy shakldan raqamli modelga o'tish evolyutsiyasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Tadqiqotda Amerika sud tizimining 1789-yildan bugungi kungacha bo'lgan tarixiy transformatsiyasi, sud iyerarxiasining shakllanishi hamda sud hokimiyatining ma'muriy mustaqilligi masalalari yoritilgan. Maqolaning asosiy qismi CM/ECF va PACER tizimlarining funksional imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu platformalarning O'zbekiston Respublikasining "My.sud.uz" yagona interaktiv xizmatlar portali bilan o'xshash hamda farqli jihatlari asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada sud hujjatlarini unifikatsiya qilish, raqamli imkoniyatlar va sud tizimida kiberxavfsizlikni ta'minlash borasidagi xalqaro tajriba tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *AQSh federal sud tizimi, raqamli transformatsiya, CM/ECF, PACER, My.sud.uz, elektron sudlov, OneID, sud iyerarxiyasi.*

TRANSFORMATION OF THE US COURTS FROM TRADITIONAL ADJUDICATION TO ELECTRONIC JUDICIAL SYSTEMS: AN ANALYSIS WITH THE ELECTRONIC COURT SYSTEM OF UZBEKISTAN

Ravshanova Malika Asror qizi

Master's Student at Tashkent State University of Law,

ORCID: 0009-0006-5780-4669

malikarav@icloud.com

Abstract. *This article provides a comparative legal analysis of the evolution of the United States federal court system as it transitioned from a traditional model to a digital framework. The study examines the historical transformation of the US judicial system from 1789 to the present day, the formation of the judicial hierarchy, and issues concerning the administrative independence of the judiciary. A significant portion of the article is dedicated to exploring the functional capabilities of the CM/ECF and PACER systems, establishing the similarities and differences between these platforms and the "My.sud.uz" unified interactive services portal of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the article analyzes international expertise regarding the unification of*

court documents, digital accessibility, and the ensurance of cybersecurity within the judicial system.

Keywords: *US federal court system, digital transformation, CM/ECF, PACER, My.sud.uz, e-justice, OneID, judicial hierarchy.*

Inson huquqlarini ta'minlashning sudlarning roli alohida ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda sudlar faoliyati raqamlashtirilayotganligi ularning ish faoliyati yanada tezkor rivojlanishi, inson huquqlarini ta'minlash yangi bosqiga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Barcha davlatlarda sudlarning rivojlanishi va faoliyati turlicha hisoblanadi Xususan, AQSh Konstitutsiyasining III moddasida federal sud Oliy sud va Kongress tomonidan tashkil etiladigan quyi sudlardaniborat ekanligi belgilangan. AQShning 1789-yildagi "Sud tizimi to'g'risida"gi Qonuni bilan federal sudlarning ilk strukturasi tasdiqlangan⁹. Dastlab Oliy sud bitta bosh sudya va beshta yordamchi sudyadan iborat bo'lib, uning yurisdiksiyasi shtatlararo nizolar va diplomatik vakillar ishtirokidagi ishlar bilan cheklangan. Vaqt o'tishi bilan mamlakat hududining g'arbga qarab kengayishi va yangi shtatlarning Ittifoqqa qo'shilishi sud tizimini ham miqdoriy, ham sifat jihatidan o'zgarishga majbur qilgan. Masalan, 1807-yilda sudyalar soni yettitaga, 1837-yilda to'qqiztaga yetkazildi, 1863-yilda esa o'ninchi okrugning tashkil etilishi bilan Oliy sud tarkibi o'zining tarixiy cho'qqisiga — 10 nafar sudyaga yetgan. Shundan so'ng, siyosiy jarayonlar ta'sirida 1869-yilda sudyalar soni to'qqiz nafar etib qat'iy belgilanib, bu ko'rsatkich bugungi kunda ham o'z kuchini saqlab kelmoqda¹⁰. Federal sud iyerarxiasining o'rta bo'g'ini bo'lgan apellyatsiya sudlarining paydo bo'lishi esa XIX asr oxiridagi sud inqirozi bilan bog'liq. Dastlabki yuz yillikda Oliy sud deyarli barcha federal ishlarni qayta ko'rishga majbur bo'lgani sababli sud dosyesi haddan tashqari ko'payib ketgan. 1891-yilda qabul qilingan "Evarts qonuni" ushbu muammoni hal qilib, to'qqizta hududiy okrug bo'yicha alohida apellyatsiya sudlarini tashkil etgan¹¹. Mazkur sud instansiyalari quyi sudlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni saralash vazifasini bajara boshlagan. Xususan, 1925-yilda qabul qilingan "Sudyalar to'g'risida"gi Qonunga binoan, Oliy sudga ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ishlarni mustaqil tanlash huquqi berilgan¹². Hozirgi kunda apellyatsiya sudlari tizimi 13 ta

⁹ The U.S. Courts of Appeals and the Federal Judiciary // Federal Judicial Center official website. – URL: <https://www.fjc.gov/history/courts/us-courts-appeals-and-federal-judiciary>

¹⁰ Federal Judicial Center. The Supreme Court of the United States and the Federal Judiciary. *History of the Federal Judiciary*. Thurgood Marshall Federal Judiciary Building, Washington, D.C. <https://www.fjc.gov/history/courts/supreme-court-united-states-and-federal-judiciary>

¹¹ Federal Judicial Center. The U.S. Courts of Appeals and the Federal Judiciary. *History of the Federal Judiciary*. Thurgood Marshall Federal Judiciary Building, Washington, D.C. <https://www.fjc.gov/history/courts/us-courts-appeals-and-federal-judiciary>

¹² Federal Judicial Center. Supreme Court: Jurisdiction and Role. *History of the Federal Judiciary*. <https://www.fjc.gov/history/courts/supreme-court-united-states-and-federal-judiciary>

tarkibiy birlikdan iborat bo‘lib, ular orasida o‘ziga xos yurisdiksiyaga ega bo‘lgan organlar alohida o‘rin tutadi. Jumladan, Kolumbiya okrugi apellyatsiya sudi federal agentliklar faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirishga ixtisoslashgan bo‘lsa, Federal okrug apellyatsiya sudi patent huquqi hamda xalqaro savdo kabi o‘ziga xos sohalarda mutlaq vakolatga ega hisoblanadi¹³. Shu bilan birga, federal tizimning poydevori hisoblangan okrug sudlari ham jiddiy transformatsiyalarni boshdan kechirgan. 1789-yilda mamlakat 13 ta sud okrugiga bo‘lingan bo‘lib, u yerda okrug sudyalari Oliy sud sudyalari bilan birgalikda ish ko‘rishgan. Sudyalarning “okruglar bo‘ylab safar qilishi” tizimi og‘ir va samarasiz bo‘lgani sababli, 1911-yilda Kongress eski turdagi okrug sudlarini tugatib, hozirgi zamonaviy rayon sudlarini yagona birinchi instansiya organi sifatida e’tirof etgan. Hozirda AQShda 94 ta shunday sud okrugi mavjud bo‘lib, ular federal jinoiy va fuqarolik ishlarining asosiy qismini ko‘rib chiqadi¹⁴. Ushbu sudlarda faoliyat yuritadigan sudyalar Konstitutsiyaning 3-moddasiga binoan hayot davomida tayinlanib ularning maoshi qisqartirilishi mumkin emas, bu esa ularning ijro hokimiyatidan to‘liq mustaqilligini ta’minlaydi¹⁵. Biroq, federal sud tizimi faqatgina 3-modda sudlari bilan cheklanib qolmaydi. Kongress o‘zining qonun chiqaruvchi vakolatlaridan foydalanib, Konstitutsiyaning 1-moddasi asosida maxsus “qonun chiqaruvchi sudlar”ni ham tashkil etgan. Bunday sudlarga AQSh Soliq sudi, Federal da’volar sudi va hududiy sudlar misol bo‘ladi. Ularning 3-modda sudlaridan asosiy farqi shundaki, ushbu sudyalar muddatsiz emas, balki ma’lum muddatga, masalan, 15 yilga tayinlanib, ular ustidan ma’muriy nazorat ancha kengroqdir¹⁶. Tizimning yaxlitligini ta’minlash maqsadida 1922-yilda Sud konferensiyasi tashkil etilgan bo‘lib, u bugungi kunda federal sudlar uchun protsessual qoidalarni ishlab chiquvchi va budget masalalarini muvofiqlashtiruvchi asosiy organ hisoblanadi. 1939-yilda AQSh sudlari ma’muriy boshqarmasining tuzilishi esa sud hokimiyatini ijro etuvchi hokimiyat nazoratidan butunlay chiqarib, unga o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatini bergan¹⁷. Yillar davomida AQSh federal sud tizimi nafaqat tashkil jihatdan, balki texnik jihatdan ham rivojlanib borgan. Jumladan, AQSh federal sud hokimiyatining raqamli transformatsiyasi CM/ECF va PACER axborot tizimlariga

¹³ Federal Judicial Center. The U.S. Circuit Courts and the Federal Judiciary. History of the Federal Judiciary. Thurgood Marshall Federal Judiciary Building, Washington, D.C. <https://www.fjc.gov/history/courts/us-circuit-courts-and-federal-judiciary>

¹⁴ The U.S. Circuit Courts and the Federal Judiciary // Federal Judicial Center official website. – URL: <https://www.fjc.gov/history/courts/us-circuit-courts-and-federal-judiciary>

¹⁵ AQSH Konstitutsiyasi: Transkripsiya. 3-modda // AQSH Milliy arxivining rasmiy portali (National Archives). – URL: <https://www.archives.gov/founding-docs/constitution-transcript#toc-article-iii->

¹⁶ AQSH Konstitutsiyasi: Transkripsiya. 1-modda // AQSH Milliy arxivining rasmiy portali (National Archives). – URL: <https://www.archives.gov/founding-docs/constitution-transcript#toc-article-iii->

¹⁷ Administrative Office of the U.S. Courts // Federal Judicial Center. URL: <https://www.fjc.gov/history/timeline/administrative-office-us-courts>

asoslanib rivojlanib kelmoqda. Ushbu tizimlar sud protsessining ochiqligi, tezkorligi va protsessual tejamkorligini ta'minlovchi asosiy vositalar hisoblanadi. CM/ECF — federal sudlarning ichki protsessual harakatlarini boshqaruvchi, shuningdek, elektron hujjatlarni qabul qiluvchi integratsiyalashgan axborot tizimi саналади¹⁸. Mazkur tizim advokatlar, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga da'vo arizalari, iltimosnomalar va boshqa protsessual hujjatlarni real vaqt rejimida to'g'ridan-to'g'ri sudning ma'lumotlar bazasiga yuborish imkonini beradi. Hujjat elektron shaklda tizimga kelib tushgan vaqt uning rasmiy topshirilgan vaqti sifatida qayd etiladi. O'zaro taqqoslaydigan bo'lsa, ushbu tizimning funkisonal imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sunining "Adolat" kompleks sud tizimlari (my.sud.uz) bilan konseptual jihatdan o'zaro o'xshashdir. Har ikki tizim ham sud hujjatlarining aylanishini markazlashtirish, inson omilini kamaytirish va odil sudlovga kirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Endi bevosita CM/ECF¹⁹ga to'xtaladigan bo'lsak. Unda quyidagi funkisyalari mavjud:

- federal sudlar haqida: ushbu bo'limda sud tizimining konstitutsiyaviy asoslari, sud ierarxiyasi va sud hokimiyatining vakolatlari bayon etilgan. Bu tadqiqotchilar uchun AQSh sud tizimining nazariy-huquqiy bazasini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda;

- sud dasturlari: sudlar tomonidan amalga oshiriladigan maxsus loyihalar, jumladan, hakamlar hay'ati, yuridik yordam dasturlari va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha ma'lumotlar jamlangan;

- ma'muriyat va siyosat: sud tizimining ichki boshqaruv apparati faoliyati, moliyaviy resurslarni taqsimlash, sudyalarning odoq-axloq kodeksi hamda kadrlar siyosatiga oid me'yoriy hujjatlar joylashtirilgan;

- ma'lumotlar va yangiliklar: tizimning statistik markazi hisoblanadi. Bu yerda sud ishlarining yillik hajmi, ko'rilgan ishlar dinamikasi va sud tizimidagi so'nggi yangiliklar e'lon qilib boriladi. Ilmiy maqola uchun zarur bo'lgan statistik tahlillarni aynan shu bo'lim ma'lumotlari asosida shakllantirish mumkin;

- Formalar va qoidalar: CM/ECF tizimi bilan ishlashning huquqiy asosi hisoblanadi.

Jumaladan, AQSh federal sudlari portalining "Formalar va qoidalar" bo'limi ushbu yo'nalishda muhim ilmiy-amaliy jihatlarni namoyon etadi. Jumladan, Portalda protsessual shakllarning huquq sohalari bo'yicha joylashishi sud ishini yuritishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan. Ayniqsa, CJA (Izoh: Criminal Justice Act) shakllarining alohida ajratilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning bepul yuridik yordam olish huquqini raqamli texnologiyalar orqali kafolatlashning namunasi sanaladi. Tizimda "Milliy federal sud formolari" tushunchasining qo'llanilishi butun mamlakat bo'ylab sud ish yurituvining standartlashganini ko'rsatmoqda. Shu bilan

¹⁸ United States courts: Official website. URL: <https://www.uscourts.gov/>

¹⁹ CM/ECF bu AQSH federal sudlarida ish yuritishni avtomatlashtirish, sud hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish va saqlashni ta'minlovchi kompleks iyerarxik tizimi. – URL: <https://www.uscourts.gov>

birga, har bir federal sudga o'zining "Mahalliy formalari"ni yuritish huquqining berilishi, markazlashgan boshqaruv bilan hududiy sud hokimiyatining mustaqilligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. [My.sud.uz](http://my.sud.uz) portalidagi "Murojaat namunalari" bo'limiga berilgan "dunyoning birorta ham sud tizimida uchramaydigan interaktiv xizmat" sifatidagi ta'rif qiyosiy-huquqiy tahlildan o'tkazilganda, uning AQSh tajribasidagi o'xshash analoglari mavjud.²⁰ Shu bois, ushbu xizmatni "dunyoning birorta ham sud tizimida uchramaydigan", deb hisoblashdan ko'ra, uni milliy huquqiy an'analarga moslashtirilgan va foydalanuvchi uchun optimallashtirilgan muvaffaqiyatli raqamli model sifatida e'tirof etish xolisroq yondashuv bo'ladi. Shu o'rinda "Tezkor havolalar" bo'limida taqdim etilgan xizmatlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak²¹, bu foydalanuvchiga yo'naltirilgan adolat modelining bir qismidir. Zamonaviy sud hokimiyati nafaqat protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi yopiq bino va qat'iy iyerarxik sudyalar korpusi, balki jamiyat uchun ochiq bo'lgan ko'p funksiyali huquqiy servislar markazi hamda intellektual ta'lim resursi sifatida namoyon bo'lishi lozim. AQSH Federal sud markazi tajribasi shuni ko'rsatadiki, sudning ommaviy obro'si uning ta'limiy va axborot ochiqligi darajasi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston sud tizimining raqamli ekotizimini takomillashtirishda sudlarning funksional vazifalarini "ta'limiy-axborot" yo'nalishi bilan boyitish, sud va jamiyat o'rtasidagi masofani qisqartirishga hamda tizimning xalqchil va foydali servis sifatidagi imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, AQShda elektron hujjat aylanishining asosi CM/ECF hisoblanadi. Ushbu tizim protsessual tejamkorlik tamoyiliga tayanib, faqat litsenziyaga ega bo'lgan advokatlar va ishonchli vakillar uchun mo'ljallangan. My.sud.uz tizimidan farqli o'laroq, CM/ECF yagona milliy portal emas, balki har bir okrug va apellyatsiya sudi uchun alohida o'rnatilgan avtonom dasturiy platforma. Bu sud hokimiyatining federal tuzilishiga mos keladi. Ayrim okrug sudlari "Pro Se" foydalanuvchilar uchun arizalarni masofadan yuklash imkonini beruvchi soddalashtirilgan interfeyslarni taqdim etadi. Ko'plab federal sudlarda bu interfeysdan foydalanish majburiy emas: ular arizani pochta aloqasi orqali yoki shaxsan taqdim etishlari mumkin. Bu raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi yuqori bo'lmagan shaxslarning huquqlarini cheklab qo'ymaslikka xizmat qiladi. Ko'rib o'tilgan ushbu tizimlarda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Adolat" kompleks sud tizimlari (my.sud.uz) dagi "Namunalari" funksiyasi mavzud bo'lib, bu yuqorida qayd etilgan "Formalar va qoidalar" funksiyasiga o'xshashdir.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. "Sudlarga murojaat qilish uchun namuna bo'lgan ariza shakllari" Interaktiv xizmatlar portali ([My.sud.uz](http://my.sud.uz)): <https://my.sud.uz/#samples>

²¹ Administrative Office of the U.S. Courts. United States Courts Official Website": <https://www.uscourts.gov/>

PACER esa federal sudlardagi barcha elektron ish hujjatlari, sud qarorlaridan jamoatchilikning masofaviy foydalanishini ta'minlovchi veb-sayt sanaladi²². Tizim orqali har qanday foydalanuvchi, tadqiqotchi, jurnalist yoki fuqaro, ro'yxatdan o'tgan holda mamlakatning istalgan federal sudi Oliy sud, Apellyatsiya yoki hududiy sudlaridagi ochiq ishlar bo'yicha hujjatlarni izlashi va yuklab olishi mumkin. Unda quyidagi funktsiyalar mavjud:

- ishlarni qidirish moduli: mazkur funktsiya federal sudlardagi ishlarni raqami, tomonlarning nomi yoki tashkilot nomi bo'yicha markazlashgan holda izlash, sud majlislari sanalari hamda ish holati haqida ma'lumot olish, shuningdek, milliy indekslar orqali barcha federal okruglar bo'yicha umumiy qidiruvni amalga oshirish imkonini beradi;

- elektron topshirish yo'riqnomalari: mazkur blok bevosita CM/ECF tizimi bilan integratsiyalashgan holda, muayyan hududiy sudlarning tizim havolalarini taqdim etish, advokatlar hamda protsessual taraflar uchun elektron hujjat topshirishning texnik talablarini belgilash, shuningdek, dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar uchun maxsus API va texnik resurslar bilan ta'minlash orqali masofaviy ish yuritish usullarini ko'rsatadi.

- hisobni boshqarish va billing tizimi: bu foydalanuvchining shaxsiy kabinetini boshqarish orqali sud hujjatlarini yuklab olish uchun belgilangan to'lovlarni monitoring qilish hamda Pay.gov platformasi orqali amalga oshirish, shuningdek, kontakt ma'lumotlari hamda foydalanuvchi huquqlarini tahrirlash imkoniyatini taqdim etadi.

- ro'yxatdan o'tish va autentifikatsiya: ushbu modul federal sud hujjatlari bazasiga kirish uchun yagona identifikatsiya ma'lumotlarini shakllantirish hamda foydalanuvchi toifasini, advokat, tadqiqotchi yoki jamoatchilik vakili aniqlash orqali tegishli kirish darajalarini belgilash jarayonini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari my.sud.uz yagona interaktiv xizmatlar portali orqali amalga oshiriladi. AQShning PACER tizimidan farqli o'laroq, mamlakatimizda sud hujjatlari bilan tanishish va arizalar topshirish funktsiyalari alohida veb-resurs sifatida emas, balki yagona portal tarkibidagi ichki modullar sifatida shakllantirilgan. Tizimning o'ziga xos jihati shundaki, undan foydalanishda shaxsni identifikatsiyalashning qat'iy tartibi o'rnatilgan. Xususan, portalgacha kirish va protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun foydalanuvchi OneID (Izoh: Yagona identifikatsiya tizimi) orqali avtorizatsiyadan o'tishi shart. Bu esa sud tizimida kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda har bir murojaatning huquqiy maqomini aniq belgilash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bizda AQSh sud tizimidagi sud PACER tizimiga o'xshash axborot tizimini mavzud bo'lsa va axborotlar shaffof tizimga joylansa bu tadqiqotchilar

²² Administrative Office of the U.S. Courts. Public Access to Court Electronic Records (PACER). *United States Courts official website.* <https://pacer.uscourts.gov/>

uchun aniq ma'lumotlarga tayangan holda, sud tizimini ochiqligini yana bir bor isbotlagan bo'lardi.

REFERENCES

1. Administrative Office of the U.S. Courts. (n.d.). Administrative Office of the U.S. Courts. Federal Judicial Center. <https://www.fjc.gov/history/timeline/administrative-office-us-courts>
2. Administrative Office of the U.S. Courts. (n.d.). Public Access to Court Electronic Records (PACER). United States Courts. <https://pacer.uscourts.gov/>
3. Administrative Office of the U.S. Courts. (n.d.). United States Courts Official Website. <https://www.uscourts.gov/>
4. AQSH Konstitutsiyasi: Transkripsiya. 1-modda [U.S. Constitution: Transcription. Article I]. National Archives. <https://www.archives.gov/founding-docs/constitution-transcript#toc-article-iii->
5. AQSH Konstitutsiyasi: Transkripsiya. 3-modda [U.S. Constitution: Transcription. Article III]. National Archives. <https://www.archives.gov/founding-docs/constitution-transcript#toc-article-iii->
6. Federal Judicial Center. (n.d.). Supreme Court: Jurisdiction and Role. History of the Federal Judiciary. <https://www.fjc.gov/history/courts/supreme-court-united-states-and-federal-judiciary>
7. Federal Judicial Center. (n.d.). The Supreme Court of the United States and the Federal Judiciary. History of the Federal Judiciary. <https://www.fjc.gov/history/courts/supreme-court-united-states-and-federal-judiciary>
8. Federal Judicial Center. (n.d.). The U.S. Circuit Courts and the Federal Judiciary. History of the Federal Judiciary. <https://www.fjc.gov/history/courts/us-circuit-courts-and-federal-judiciary>
9. Federal Judicial Center. (n.d.). The U.S. Courts of Appeals and the Federal Judiciary. History of the Federal Judiciary. <https://www.fjc.gov/history/courts/us-courts-appeals-and-federal-judiciary>
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. (n.d.). Sudlarga murojaat qilish uchun namuna bo'lgan ariza shakllari [Sample application forms for applying to courts]. Interaktiv xizmatlar portali (My.sud.uz). <https://my.sud.uz/#samples>
11. Pastuxov, P. S. (2021). Elektronnyy dokumentooborot v ugovnom protsesse SSHA [Electronic document management in the criminal process of the USA]. Vestnik KAFU. https://www.vestnik-kafu.info/doc/science/2021/kongress_2021_2.pdf#page=237
12. Shcherba, S. P. (2021). Elektronnyy dokumentooborot v ugovnom protsesse SSHA [Electronic document management in the US criminal process]. Cyberleninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/elektronnyy-dokumentooborot-v-ugolovnom-protsesse-ssha/viewer>